

ADABIY TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Duschanova Nilufar Sabirbayevna,
Urganch RANCH Texnologiyalar universiteti dotsenti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18299494>

Annotatsiya. Ushbu maqolada neyropedagogik texnologiyalar asosida adabiy savodxonlikni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Muallif adabiy savodxonlikni faqat bilim va tushunish emas, balki shaxsiy tafsir, hissiy idrok va mulohazali o'qish qobiliyatini o'z ichiga olgan integral kompetensiya sifatida talqin qiladi. Neyropedagogikaning kognitiv, affektiv va sensomotor mexanizmlari adabiy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni talab etishi ta'kidlangan. Maqolada neyrofikrlash, neyrotafsir, vizual va verbal faollashtirish, tafakkur kartasi kabi metodik vositalar orqali o'quvchilarda adabiy savodxonlikni shakllantirish strategiyalari ilmiy asoslangan. Shuningdek, shaxsiy ma'no yaratish, badiiy matnni interpretatsiya qilish va refleksiv mulohazalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan ta'limiy faoliyat shakllari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: neyropedagogik texnologiyalar, shaxsiy ma'no, neyrofikrlash, badiiy tafsir, kognitiv faollik, vizual-verbal faollashtirish, metakognitiv strategiyalar, ta'limiy interpretatsiya, refleksiv o'qish, sensomotor o'zaro ta'sir.

Аннотация. В данной статье освещены теоретические и методические основы развития литературной грамотности на основе нейропедагогических технологий. Автор трактует литературную грамотность не только как знание и понимание, но и как интегральную компетенцию, включающую в себя способность к личному толкованию, эмоциональному восприятию и рассудительному чтению. Подчеркивается, что когнитивные, аффективные и сенсомоторные механизмы нейропедагогики требуют инновационных подходов в процессе литературного образования. В статье научно обоснованы стратегии формирования литературной грамотности у учащихся посредством таких методических средств, как нейромышление, нейроинтерпретация, визуальная и вербальная активизация, карта мышления. Также рекомендованы формы образовательной деятельности, служащие для создания личного смысла, интерпретации художественного текста и развития рефлексивных суждений.

Ключевые слова: нейропедагогические технологии, личностный смысл, нейромышление, художественная интерпретация, когнитивная активность, визуально-вербальная активизация, метакогнитивные стратегии, образовательная интерпретация, рефлексивное чтение, сенсомоторное взаимодействие.

Abstract. This article highlights the theoretical and methodological foundations of the development of literary literacy based on neuropedagogical technologies. The author interprets literary literacy not only as knowledge and understanding, but also as an integral competence that includes the ability to read with personal interpretation, emotional perception, and reasoning. It is emphasized that the cognitive, affective, and sensorimotor mechanisms of neuropedagogy require innovative approaches in the process of literary education. The article scientifically substantiates the strategies for the formation of literary literacy in students through such methodological tools as neuro-thinking, neuro-interpretation, visual and verbal activation, and a thinking map. Also, forms of educational activity that serve to create personal meaning, interpret the literary text, and develop reflexive thinking are recommended.

Keywords: neuropedagogical technologies, personal meaning, neuro-thinking, artistic interpretation, cognitive activity, visual-verbal activation, metacognitive strategies, educational interpretation, reflexive reading, sensorimotor interaction.

Kirish. Ta'limning an'anaviy usullari ko'p hollarda barcha o'quvchilarning bilish salohiyatini to'liq ro'yobga chiqara olmayotgan bir paytda, neyropedagogika individual

xususiyatlarga moslashgan, miya faoliyatiga muvofiq o'qitish imkoniyatini yaratadi. Xususan, adabiy savodxonlikni shakllantirishda ham neyropedagogik yondashuvlar katta ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy matnni anglash, his etish, shaxsiy ma'no yaratish va fikr bildirish kabi jarayonlar inson miyasining bilish, emosional va tilga oid markazlari faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, neyropedagogik qarashlarni adabiy ta'limga integratsiya qilish orqali o'quvchida chuqur, barqaror va shaxsiylashtirilgan savodxonlikni shakllantirish imkoni yaratiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi shiddat bilan o'zgarayotgan axborot muhiti, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari va bilimni o'zlashtirishdagi farqlarini hisobga olgan holda yangi ilmiy yondashuvlarni talab etmoqda. Ana shunday ilmiy yondashuvlardan biri – neyropedagogika bo'lib, u inson miyasi faoliyati, kognitiv va hissiy jarayonlar asosida o'qitishni tashkil etishga qaratilgan. Adabiy matnni anglash jarayoni – inson miyasidagi bilish (kognitiv) va his qilish (affektiv) tizimlarining bir paytda hamkorlikda faollashuvi bilan kechadigan murakkab va integrativ jarayondir. Bu jarayon o'zida o'quvchining leksik va grammatik ma'lumotlarni qabul qilishi, ularni ma'naviy strukturaga solishi, badiiy obrazlar va g'oyalarni anglashi, his qilish orqali ularga munosabat bildirishi hamda shaxsiy tajriba, madaniy kontekst va hayotiy qadriyatlar bilan bog'lab qayta talqin qilishi kabi bosqichlarni qamrab oladi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy neyrobiologiyada bu masala chuqur o'rganilmoqda. Xususan, amerikalik neyropsixolog Merienn Vulf shunday ta'kidlaydi: "Matnni o'qish — bu tabiiy jarayon emas, u bir necha neyron tizimlar o'rtasidagi uyg'un harakatni talab etadi. Ma'no anglash va munosabat bildirish uchun miyadagi ko'p funktsiyali neyron zanjirlar bir vaqtda faoliyat ko'rsatishi lozim" [1.64].

Bu fikrni to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Chunki adabiy matnni faol idrok etishda miyaning ko'p sonli zonalari faol ishtirok etadi. Agar ta'lim ushbu miya funktsiyalariga mos ravishda tashkil etilsa, ya'ni vizual, eshitish, harakat, muloqot, hissiy ta'sir orqali boyitilsa, o'quvchida adabiy savodxonlik chuqur, uzoq muddatli va shaxsiylashtirilgan tarzda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, adabiy matnni anglash jarayonini faqat lingvistik yoki pedagogik yondashuv bilan emas, balki neyropedagogik yondashuvlar asosida ham tashkil etish ta'limda muvaffaqiyatga olib keluvchi strategik yo'nalishlardan biridir. Bu o'quvchining intellektual, hissiy va ma'naviy rivojiga bir vaqtda ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot neyropedagogik yondashuvlar asosida adabiy savodxonlikni rivojlantirish masalasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks nazariy-metodik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik, psixologik va neyrobiologik adabiyotlarni tahlil qilish orqali adabiy savodxonlikning kognitiv, affektiv va sensomotor mexanizmlari aniqlab olindi.

Shuningdek, tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish metodlari yordamida neyropedagogik texnologiyalarning adabiy ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari ochib berildi.

Interpretativ va refleksiv tahlil usullari orqali badiiy matnni shaxsiy ma'no asosida anglash jarayonlari ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlillar va natijalar. Neyropedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, adabiy matnni anglash jarayoni bu inson miyasida ma'lumotni qayta ishlash, his etish va shaxsiy ma'no yaratishni ta'minlovchi integrativ faoliyatdir. Ushbu jarayonda miya ma'lumotni faqat qabul qilish bilan cheklanib qolmaydi, balki uni talqin qiladi, ta'riflaydi va shaxsiy tajriba bilan bog'laydi. Adabiy matnlarni o'qish paytida o'quvchida assosiativ fikrlash, eslash, obrazli idrok, emosiyani his etish va ularni ma'no bilan bog'lash jarayonlari faollashadi. Bu jarayonlarda turli neyron tarmoqlar bir-biri bilan hamkorlikda ishlaydi, natijada, matn nafaqat bilinadi, balki his etiladi va shaxsan anglanadi. Ushbu jarayonning uyg'un kechishi adabiy savodxonlikning teran va barqaror shakllanishiga olib keladi. Demak, adabiy matnni qabul qilish, neyropedagogika nuqtai nazaridan, faqat ma'lumotni anglash emas, balki ma'no yaratishga qodir, faol miyaning bilish jarayonidir. Ushbu jarayonda hissiy idrok ayniqsa muhim o'rin tutadi. Chunki o'quvchi badiiy matn orqali nafaqat ma'lumot oladi, balki obrazlar orqali his qiladi, voqealarga empatiya bildiradi, muallif pozitsiyasiga nisbatan shaxsiy munosabat shakllantiradi. Bunday faoliyatda hissiyot va fikr uyg'un ravishda ishlaydi, natijada savodxonlik ong va qalbning birgalikdagi kognitiv va affektiv harakatiga aylanadi.

Adabiy savodxonlikni shakllantirish jarayonida inson miyasining e'tibor, xotira, ma'no yaratish va badiiy tafakkur kabi asosiy kognitiv funksiyalari hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki badiiy matnni o'qish va tushunish faqatgina til qobiliyati bilan emas, balki bilish jarayonlarining murakkab integratsiyasi – axborotni tanlab olish, eslab qolish, qayta ishlash, his etish va shaxsiy ma'noda anglash mexanizmlari orqali amalga oshadi.

Avvalo, **e'tibor** adabiy matn bilan faol muloqotga kirishishda birinchi va zarur shartdir. Miya ma'lumotlarni qabul qilishda diqqatni markazlashtirish orqali kerakli ma'lumotni tanlab oladi va uni tahlil qilishga yo'naltiradi. E'tiborning kuchli bo'lishi matndagi muhim detallar, obrazlar va badiiy vositalarni to'g'ri qabul qilishga zamin yaratadi.

Xotira, ayniqsa ishchi xotira va uzoq muddatli xotira, adabiy matnning umumiy mazmunini saqlash, asar personajlari o'rtasidagi bog'liqlikni anglash, oldingi bilim va tajriba bilan solishtirishda muhim ahamiyatga ega. Miyada ma'lumotlar gippokamp orqali saqlanadi va kerakli paytda faollashadi. Shu orqali o'quvchi asarning mantiqiy va g'oyaviy izchilligini anglaydi.

Ma'no yaratish adabiy savodxonlikning yuragi hisoblanadi. Bu faqat muallifning matnda bildirgan fikrini qabul qilish emas, balki o'quvchining shaxsiy tajribasi, dunyoqarashi va hissiy holati bilan uyg'unlashgan holda yangi ma'no tuzish qobiliyatidir. Bu jarayonda prefrontal qavatlar faol ishga tushib, tanqidiy va ijodiy tafakkurni faollashtiradi.

Badiiy tafakkur esa o'quvchida estetik anglash, obrazli idrok, simvol va badiiy ifodalarni taniy olish, ular orasidagi assosiativ aloqalarni yarata olish qobiliyatini anglatadi.

Bu faoliyatda miyadagi vizual, hissiy va til markazlari birgalikda ishlaydi. Badiiy tafakkur orqali o'quvchi asarning sirli mazmun qatlamlarini ochishga, g'oyaviy-estetik mohiyatini idrok etishga qodir bo'ladi.

Bu borada neyropsixolog Merienn Vulf shunday deydi: *“Matnni ma'noli anglash — bu miyaning diqqat, xotira, til va his qilish tizimlari o'rtasidagi doimiy hamkorlik natijasidir. Agar bu tizimlar uyg'un ishlamas, matn faqat so'zlar yig'indisigina bo'lib qoladi”* [2.64].

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, adabiy savodxonlikning shakllanishi va uning chuqur anglanishi uchun e'tibor, xotira, ma'no yaratish va badiiy tafakkurning neyropedagogik jihatdan uyg'un rivojlanishi talab etiladi. Bu jarayonda miyadagi kognitiv mexanizmlarni hisobga olgan holda ta'lim tashkil etilsa, o'quvchida chinakam ma'naviy va intellektual rivojlanishga erishish mumkin.

Adabiy savodxonlikni rivojlantirishda neyropedagogik yondashuvlar orasida **affektiv (hissiy)** va **kognitiv (bilish)** neyroyondashuvlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu ikki yondashuv o'quvchining miyasida kechadigan turli neyropsixologik jarayonlarni hisobga olgan holda, adabiy matnni faol, chuqur va shaxsiy anglashni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan savodxonlik strategiyalari o'quvchida faqat bilish qobiliyati emas, balki emosional idrok, shaxsiy munosabat va ijtimoiy fikrlashni ham uyg'otadi.

Kognitiv neyroyondashuv – bu o'quvchining bilish qobiliyatlarini neyropsixologik nuqtai nazardan faollashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuv bo'lib, u adabiy savodxonlik jarayonida fikrlash, tushunish, tahlil qilish va ma'no anglash kabi yuqori tartibdagi aqliy faoliyatlarni qamrab oladi. Bu yondashuv o'quvchining matn bilan munosabatini intellektual darajada faollashtiradi, miyadagi diqqat, xotira, til va tahlil markazlarini birgalikda ishga soladi.

Tarkibiy tahlil strategiyasi orqali o'quvchi matnni yuzaki qabul qilishdan chiqib, uning ichki tuzilmasi – voqea rivoji, syujet chizig'i, obrazlar orasidagi bog'liqlik, muallifning g'oyasi va maqsadini izchil ravishda anglash imkoniga ega bo'ladi. Bu jarayonda u mustaqil tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarishni o'rganadi.

Metakognitiv strategiyalar esa o'qish jarayonini ongli ravishda boshqarishga qaratilgan. Matnni o'qishdan oldingi tayyorgarlik, o'qish paytidagi savol berish, taxmin qilish, tushunmagan joylar ustida to'xtalish va o'qib bo'lgandan so'ng fikrlarni saralash kabi jarayonlar miyada faol kognitiv aloqalarni yuzaga keltiradi. Bu esa chuqur savodxonlikni shakllantirish uchun zarur asos hisoblanadi.

Tanqidiy savollar berish orqali o'quvchi passiv o'quvchi emas, balki faol va tanqidiy mulohaza yurituvchi shaxs sifatida rivojlanadi. *“Muallif nima demoqchi?”*, *“Uning pozitsiyasiga qo'shilamanmi?”*, *“Boshqacha bo'lishi mumkinmide?”* kabi savollar orqali shaxsiy fikrlash va interpretatsiya qobiliyati rivojlanadi. Bu esa adabiy savodxonlikning muhim qismlaridan biri sanaladi.

Ma'no kartalari esa o'quvchining vizual fikrlashini rivojlantiradi va matndagi bog'liq g'oyalar, personajlar, voqealar orasidagi munosabatlarni anglashni osonlashtiradi. Miyadagi vizual va til sohalari birgalikda faollashgani sababli, ma'lumot uzoq muddatli xotirada saqlanadi, bu esa chuqur va barqaror anglashni ta'minlaydi.

Kognitiv neyroiyondashuv asosida qurilgan ushbu strategiyalar adabiy savodxonlikni faqat ma'lumotni o'zlashtirish jarayoni emas, balki ma'no yaratish, shaxsiy munosabat bildirish va ijtimoiy ongni rivojlantirish vositasiga aylantiradi. Shu boisdan, ta'limda bu yondashuvni tizimli ravishda qo'llash o'quvchining shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Affektiv neyroiyondashuv – adabiy matnni anglash va qabul qilish jarayonida hissiy idrok, empatiya va shaxsiy munosabatni markaziy o'ringa qo'yadigan neyropedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quvchi badiiy matnni faqat ma'naviy yoki bilim nuqtayi nazaridan emas, balki qalb va hissiyot orqali qabul qilishi, o'zida voqealarga nisbatan empatik munosabat, estetik zavq va shaxsiy pozisiya shakllantirishi lozim. Bunday yondashuv inson miyasidagi amigdala, gippokamp va prefrontal qavatlarining hamkorligini faollashtirib, o'qishni faqat bilish emas, ehsosiy jihatdan boy his-tuyg'uli jarayonga aylantiradi.

Affektiv neyroiyondashuv doirasidagi *obrazli taassurotni ifodalash* strategiyasi o'quvchida o'qish vaqtida yuzaga kelgan his-tuyg'ularni aniqlash va ifoda etishga qaratilgan. O'quvchi matnda qaysi voqea, obraz yoki satr unga kuchli ta'sir qilganini aniqlaydi, nega bunday bo'lganini anglashga urinib, matn bilan hissiy muloqotga kiradi. Bu – shaxsiy ma'no yaratishning hissiy poydevorini ta'minlaydi.

O'zini qahramon o'rnida tasavvur qilish strategiyasi orqali o'quvchi matndagi obrazlar bilan hissiy jihatdan hamdard bo'ladi, ularning muammolari, ichki kechinmalari, qaror va harakatlariga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantiradi. Bunday empatik yondashuv adabiy matnni shaxsiy tajriba bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida savodxonlikni chuqurlashtiradi.

Estetik baholash strategiyasi badiiy vositalar, til uslubi, obrazli ifoda, metafora va simvollar orqali o'quvchida ijodiy zavqni uyg'otishga xizmat qiladi. Bu jarayonda miyadagi vizual va hissiy markazlar birgalikda ishga tushadi, natijada estetik idrok va ijodiy tafakkur shakllanadi. O'quvchi nafaqat matnni tushunadi, balki uni "zavq bilan" his qiladi.

Hissiy mulohaza kundaligi esa har bir o'quvchining o'qish jarayonidagi his-tuyg'ularini yozma ravishda aks ettirishini nazarda tutadi. Bu kundaliklar orqali o'quvchi o'z emosiyalarini ongli tarzda anglaydi, ularni so'z orqali ifoda etadi va o'z hissiy tajribasini tahlil qilishga o'rganadi. Bunday reflektiv faoliyat neyropedagogik nuqtai nazardan emosional zehning o'sishiga turtki beradi.

Adabiy savodxonlikni rivojlantirishda multisensor yondashuvlar va vizual-verbal faoliyatga asoslangan metodlar neyropedagogik jihatdan yuqori samara beradi. Chunki inson

miyasi axborotni faqat bitta kanal orqali emas, balki ko‘plab hissiyot – kanallari ko‘rish, eshitish, harakat, nutq va hissiy qabul orqali qayta ishlaydi. Shu bois, adabiy matnni faqat o‘qish bilan cheklamasdan, undagi mazmuni turli sensor manbalar orqali idrok etish, badiiy g‘oya va obrazlar orasidagi bog‘liqlikni vizual vositalar bilan aniqlash, til va fikrni uyg‘un faollashtirish orqali o‘quvchining mulohazaviy va ijodiy tafakkuri faollashtiriladi.

Multisensor o‘qish bu o‘qish jarayonida bir vaqtning o‘zida bir nechta hissiyot kanallarini jalb etish usuli bo‘lib, unda vizual (ko‘rish), audial (yeshitish), kinestetik (harakat), verbal (so‘zlash) va hatto taktil (tegish) faoliyatlar uyg‘unlashgan holda ishga tushadi. Masalan, adabiy matnni o‘qish paytida ovozli o‘qish, tasvirni ko‘rish, qahramonni sahnada tasvirlash, qahramon hissiyotini ifoda etish yoki rol o‘ynash kabi usullar qo‘llanilganda, miyadagi turli markazlar faollashadi. Bu esa xotirani mustahkamlaydi, tushunishni chuqurlashtiradi va shaxsiy anglashni rivojlantiradi.

Tafakkur kartasi bu adabiy matnning asosiy g‘oyalari, personajlar o‘rtasidagi munosabatlar, voqealar rivoji va muallifning pozitsiyasini vizual shaklda tasvirlash usulidir. Ushbu vizual usul o‘quvchida obrazlar va g‘oyalar o‘rtasidagi aloqani anglashni osonlashtiradi. Tafakkur kartalari orqali o‘quvchi adabiy matnning tuzilmasini o‘z ongida to‘liq “xarita” sifatida shakllantiradi, bu esa yodda saqlash va tahlil qilishni ancha yengillashtiradi.

Vizual-verbal faollashtirish usullari esa badiiy matnni vizual obrazlar (rasm, diagramma, videorolik) va so‘z orqali faol qabul qilishga asoslanadi. Masalan, asar qahramonining hissiyotini ifoda etuvchi rasm yaratish, voqea rivojini sxemalashtirish, yoki matndagi estetik tasvirlarni tasvirlab berish kabi mashqlar o‘quvchining fikrlashini faollashtiradi. Vizual ma‘lumotlar til markazlari bilan uyg‘un faoliyat yuritganda, miyadagi neyron aloqalar yanada faol shakllanadi va savodxonlik jarayoni tezlashadi.

Fransiyalik pedagog va neyrofiziolog Selin Alvares bu borada quyidagifikrlarni bildirgan: *“O‘qish jarayonida miyani faollashtirish uchun ko‘p hissiyotli ta’sirlar zarur. Eshitish, ko‘rish, harakat va nutq orqali axborot uzatilganda, bilim to‘g‘ridan-to‘g‘ri miyada qayta ishlanadi va mustahkamlanadi”* [2.112].

Adabiy ta’limda savodxonlikni chuqur va barqaror shakllantirish uchun bilim berish faqat ma’ruzali yoki matnli yondashuvlar bilan cheklanmasligi, balki inson miyasidagi his qilish, anglash va tafsir qilish kabi jarayonlar bilan uyg‘un holda tashkil etilishi lozim. Neyropedagogik nuqtai nazardan, ta’lim jarayoniga **emosiya, taassurot, tafsir va tajriba** elementlarini jalb etish orqali o‘quvchi ongida uzoq muddatli, mazmunli va shaxsiylashgan bilim hosil qilinadi. Quyida ushbu usullar mazmuni va qo‘llanish tavsiyalari yoritiladi.

Emosiyaga asoslangan o‘qitish usuli adabiy matnni qabul qilish va tushunish jarayonida o‘quvchining hissiy taassurotlarini faollashtirishga qaratilgan neyropedagogik yondashuvdir. Bu usul o‘quvchining faqat aqliy emas, balki qalbiy hamda ichki hissiyotini ham o‘qish jarayoniga jalb qilishni ko‘zda tutadi. Ilmiy jihatdan qaralganda, emosiya va

xotira bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Miyadagi amigdala hissiy ma’lumotlarni qayta ishlash va uni xotira bilan bog‘lashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar ma’lumot hissiy ta’sir ostida qabul qilinsa, u ancha tez va samarali tarzda uzoq muddatli xotiraga joylashadi. Shu bois, adabiy matnni his qilish orqali anglash jarayoni ta’limda chuqur va barqaror o‘zlashtirishga olib keladi.

Emosiyaga asoslangan o‘qitish shuni ham ko‘rsatadiki, har bir o‘quvchi adabiy matnni o‘z qalbi va tajribasi asosida qabul qiladi. Shu bois, bu usul ta’limda universal emas, balki individuallashtirish va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni talab qiladi. Har bir o‘quvchining emosional reaksiyasi turlicha bo‘lishi mumkin va bu farqlarni inobatga olgan holda ta’limni tashkil etish, adabiy savodxonlikni chuqur shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Taassurotga asoslangan o‘qitish usuli o‘quvchining adabiy matn bilan shaxsiy, hissiy va estetik muloqotga kirishishini ta’minlaydigan, neyropedagogik yondashuvga tayanadigan samarali metodlardan biridir. Uning markazida matnni tushunish emas, balki u orqali yuzaga kelgan ichki holatlar, his-tuyg‘ular va shaxsiy kayfiyatlar mujassam bo‘ladi. Taassurot — bu bevosita empatik anglash, estetik zavq, qahramonlarga nisbatan hissiy munosabat va voqealarning shaxsiy tajriba bilan bog‘lanishi orqali yuzaga keladigan psixoemosional jarayondir.

Taassurotga asoslangan o‘qitishda o‘quvchilardan asarni o‘qib bo‘lganidan so‘ng quyidagi kabi savollar orqali shaxsiy munosabat bildirishlari so‘raladi:

- *“Matn sizda qanday kayfiyat uyg‘otdi?”*
- *“Asardagi voqealar sizni qanday hissiyotga soldi?”*
- *“Qahramonlarga nisbatan qanday tuyg‘ular his etdingiz?”*
- *“Ushbu taassurotlaringizdan kelib chiqib, asar mazmunini qanday angladingiz?”*

Bu savollarga javob berishning erkin shaklda bo‘lishi — ya’ni yozma fikr, og‘zaki bayon, rasm, esse, she’r, dramalashtirish, vizual obraz yaratish kabi ko‘p formatli ifoda orqali amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Bu jarayonda har bir o‘quvchi matnni o‘z dunyoqarashi va hissiy dunyosi bilan bog‘laydi, bu esa adabiy savodxonlikning teranligini ta’minlaydi.

Masalan, dramatik asarlarni o‘qishdan so‘ng, o‘quvchilar shaxsiy hayotdagi o‘xshash vaziyatlarni eslab, ular bilan bog‘laydi, qahramonning tanlovini o‘z nuqtai nazari asosida baholaydi yoki o‘z hissiy reaksiyasini rasm yoki she’r orqali ifodalaydi. Bunday usul nafaqat adabiy bilimni, balki shaxsiy ma’no yaratish qobiliyati, refleksiya, ijodiy fikrlash va hissiy ongni rivojlantiradi.

Taassurotga asoslangan o‘qitish usulini amaliy jihatdan tushunish va qo‘llash uchun uni adabiyot darslaridagi aniq asar misolida yoritish juda foydali. Bunday yondashuvni Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘rganish jarayonida qo‘llash o‘quvchilarda nafaqat adabiy matnni tushunish, balki uni shaxsiy qabul qilish, his etish va undan xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

“O‘tkan kunlar” tarixiy-badiiy asar bo‘lib, u faqat syujet yoki obrazlarni o‘rganish uchun emas, balki o‘quvchida empatiya, insoniy qadriyatlarga munosabat, shaxsiy fikr va ma‘no yaratish qobiliyatini shakllantirish uchun ham boy manbadir. Taassurotga asoslangan usul orqali o‘quvchilar asarni faqat tahlil qilmasdan, balki uni “yuragi bilan” his qiladilar.

Usulni qo‘llash bosqichlari:

1. Matnni hissiy qabul qilish uchun tayyorgarlik:

O‘qituvchi asarni o‘qish oldidan quyidagi savollar bilan o‘quvchilarning diqqatini hissiy idrokka yo‘naltiradi:

“Sevgi, fidoyilik va sadoqat siz uchun nima?”

“O‘tmishdagi muhabbat bilan hozirgi munosabatlar o‘rtasida qanday farqlar bor, deb o‘ylaysiz?”

2. Matnni o‘qish va shaxsiy taassurotlarni qayd etish:

O‘quvchilar romandan o‘zlariga eng kuchli ta‘sir qilgan epizodni tanlaydilar. Masalan, Otabek va Kumushning muhabbati, Zaynabning hasad va dramatik taqdiri, asar oxiridagi fojia kabi vaziyatlar shunday epizodlardandir. O‘quvchilardan shunday savollarga javob berish so‘raladi:

“Ushbu epizod sizda qanday his-tuyg‘u uyg‘otdi?”

“Qahramonlar xatti-harakatiga qanday munosabatda bo‘ldingiz?”

“O‘zingiz shunday vaziyatda bo‘lganingizda, qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?”

3. Taassurotni erkin shaklda ifoda etish:

O‘quvchilar taassurotni yozma shaklda esse, she‘r, xat yoki rasm, qahramonga murojaat, dramalashtirilgan sahna ko‘rinishida ifoda etadilar. Masalan:

– “Kumushga xat” yozish: “Kumush, sening fidoyiliging va sabring meni hayratga soldi. Senning Otabek bilan birga qo‘rqinchli taqdir sinovlariga chidashing men uchun haqiqiy jasorat namunasidir...”

4. Shaxsiy ma‘no yaratish va xulosa:

Dars yakunida o‘quvchilardan o‘z taassurotlari asosida quyidagi kabi xulosalar chiqarish so‘raladi:

“Bu asar orqali sizning hayotga, munosabatlarga bo‘lgan qarashingiz o‘zgardimi?”

“Qahramonlar taqdiri orqali qanday ijtimoiy muammolarga e‘tibor qaratildi?”

Bunday ta‘lim jarayonida “O‘tkan kunlar” asari o‘quvchi ongida faqat bir adabiy matn emas, balki shaxsiy hissiy tajriba, ma‘no va hayotiy saboq sifatida o‘rnashadi. Taassurotga asoslangan yondashuv adabiy savodxonlikni teranlashtiradi, o‘quvchini faol, fikrlovchi va hislovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shu usul bilan adabiy ta‘lim ko‘proq miya, qalb va tafakkurni uyg‘un faoliyatga jalb etadigan bilim jarayoniga aylanadi.

Tafsirga asoslangan o‘qitish usuli adabiy ta‘limning chuqur ma‘no yaratish, interpretatsiya va fikrlash jarayonini tashkil etuvchi eng muhim neyropedagogik usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usul adabiy matnni faqat faktlar yoki syujet darajasida anglash bilan

cheklamaydi, balki o'quvchining shaxsiy tafakkuri, hayotiy tajribasi va ijtimoiy ongi bilan uyg'unlashgan holda talqin qilishini ta'minlaydi. Tafsir qilish jarayonida o'quvchi asar mazmunini qaytadan "quradi", o'z ongida "qayta yaratadi" va shu orqali matn orqali real hayotga munosabat shakllantiradi.

Tafsirga asoslangan o'qitishda o'quvchi faol sub'yekt sifatida namoyon bo'ladi. U faqat matnda nima deyilganini anglamaydi, balki nima uchun shunday deyilgani, buning ortida qanday g'oya yotgani, muallif nimaga e'tibor qaratgani va o'zi bu haqda nima deb o'ylashi kerakligi haqida fikr yuritadi. Bu jarayonda o'qituvchi tomonidan ochiq savollar berish ("*Muallifning bu obraz orqali qanday g'oyani ifoda etmoqchi bo'lgan?*", "*Bu voqea haqida sizning munosabatingiz qanday?*", "*Asardagi ijtimoiy muammo bugungi hayotimizda ham dolzarbmi?*") kabi faoliyatlar muhim o'rin tutadi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi obrazlar va badiiy voqealarni tahlil qilish asosida adabiy ta'limda tafsirga asoslangan o'qitish usulini qo'llash samarali ekanini ko'rsatish mumkin. Bu usulda o'quvchilar asar mazmuni, badiiy vositalar va muallif maqsadini shaxsiy dunyoqarash va ijtimoiy voqelik bilan bog'lab talqin qiladilar. Romanning bosh qahramoni Zebi obrazi orqali Cho'lpon ayol ozodligi, an'anaviy qarashlar va shaxsiy erk muammolarini ko'targan. Shu asosda dars jarayonida "*Zebi qanday jamiyatda yashayotgan edi?*", "*Uning ozodlikka intilishi nimalarda ko'rinadi?*", "*Muallif bu orqali qanday g'oyani bildirmoqchi bo'lgan?*" kabi savollar o'quvchilarni matnni kengroq anglash va shaxsiy munosabat bildirishga undaydi.

Masalan, Zebining bahor faslida qishloqqa chiqish, tabiat bilan uyg'unlikda yashashga bo'lgan intilishi uning ichki erkinlikka chanqoqligi bilan bog'lanadi. Uning orzulari va his-tuyg'ularini tahlil qilar ekan, o'quvchi uning ruhiy holatini his etadi, hamdardlik qiladi va badiiy obrazni shaxsiy tajribasi bilan solishtiradi. Shu bilan birga, tafsir usuli yordamida o'qituvchi matnni faqat syujet darajasida emas, balki konseptual va g'oyaviy jihatdan ham tahlil qilishga yo'naltiradi. Masalan, Zebi va Salti o'rtasidagi munosabat orqali qiz bolalarning hayotidagi do'stlik, emosional qo'llab-quvvatlash, hamdardlik kabi ma'naviy fazilatlarni muhokama qilish mumkin.

Bu usulda dars quyidagicha tashkil etilishi mumkin: avvalo, o'quvchilar "Kecha va kunduz" romanining muayyan bo'limi o'qiladi; so'ngra matndagi voqealar va obrazlarga doir savollar beriladi; keyin esa har bir o'quvchi o'z fikrini erkin shaklda (yozma, og'zaki, vizual – rasm, esse, she'r) bildirishi uchun imkoniyat yaratiladi. Bu esa adabiy savodxonlikning shaxsiy tafsir, tanqidiy fikr va ijodiy yondashuv kabi komponentlarini rivojlantiradi. Tafsirga asoslangan o'qitish o'quvchining fikrlash chuqurligini oshiradi, adabiy matnga nisbatan anglash va his qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Tajribaga asoslangan o'qitish usuli o'quvchining o'z shaxsiy hayoti, hissiyotlari va ijtimoiy tajribasini adabiy matn bilan bog'lashga qaratilgan. Bu usulda matndagi voqealar, muammolar va obrazlar o'quvchining hayot tajribasi bilan solishtiriladi. Masalan, "*Siz*

hayotda shunga o'xshash holatga duch kelganmisiz?", "Asardagi muammoni hal qilish bo'yicha sizning taklifingiz qanday?" kabi savollar orqali o'quvchi faqat o'quvchi emas, balki "fikrlovchi inson" sifatida rivojlanadi. Bu jarayonda shaxsiylashgan anglash, ijtimoiy ong va mas'uliyat tuyg'usi shakllanadi.

Tajribaga asoslangan o'qitish usuli adabiy ta'limda o'quvchining shaxsiy hayoti, hissiyotlari va ijtimoiy tajribasini adabiy matn bilan bog'lashga yo'naltirilgan samarali metod hisoblanadi. Bu yondashuvda o'quvchilar asar mazmuni, voqealari va qahramonlarini o'z hayot tajribalari bilan solishtirib, shaxsiy munosabatlarini shakllantiradilar. Natijada, adabiy matn o'quvchilar uchun yaqin va tushunarli bo'lib, ularning ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi tajribaga asoslangan o'qitish usulini qo'llash uchun mos asarlardan biri hisoblanadi. Asar Toshkentning urushdan keyingi yillaridagi hayotini, oilaviy munosabatlar, insoniy qadriyatlar va jamiyatdagi muammolarni yoritadi. Muallif o'z oilasi va onasi misolida o'sha davrdagi odamlarning hayoti va qiyinchiliklarini tasvirlaydi.

Neyroassosiatsiya, neyroiinterpretatsiya va qisqa muddatli xotirani faollashtirish ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarni samarali o'zlashtirishi va xotirasida mustahkam saqlashi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu konsepsiyalar neyropedagogika va kognitiv neyroilm fani asosida shakllangan bo'lib, ularni ta'limda qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, individuallashtirilgan ssenariylar va shaxsga moslashgan intellektual tarbiya mexanizmlari orqali adabiy savodxonlikni har bir o'quvchi uchun mos, ma'noli va ta'sirli tarzda rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa zamonaviy adabiy ta'limning neyropedagogik istiqbollari belgilaydi. Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modelida miyaning bilish, his qilish, eslab qolish va ma'no yaratish kabi jarayonlari adabiy matnni qanday qabul qilishga xizmat qilishi ko'rsatildi. Affektiv va kognitiv neyroiyondashuvlar, multisensor o'qish, vizual-verbal faollashtirish usullari orqali o'quvchida nafaqat tushunish, balki hissiy anglash va shaxsiy munosabat shakllanishi mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Neyroassosiatsiya va neyroiinterpretatsiya kabi jarayonlar adabiy matnni qayta ishlash va shaxsiy ma'noda qabul qilish mexanizmlarini kuchaytiradi. Qisqa xotirada faollashtirish, metakognitiv strategiyalar va intellektni hisobga olgan individual o'qitish ssenariylari har bir o'quvchida shaxsiy anglash va ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu yondashuvlar natijasida adabiy savodxonlik faqat bilim darajasida emas, balki hissiyot, fikr va ijod darajasida ham shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Wolfe M. Proust and the Squid: The Story and Science of the Reading Brain. – New York: Harper Collins, 2007. – p. 64.
2. Alvarez C. Les lois naturelles de l'enfant. – Paris: Les Arènes, 2016. p. 112.

3. Solovyova Ye.V. Formirovaniye literaturnoy gramotnosti shkolnikov. – Moskva: Prosvetyeniye, 2016, b. 32–35.; Cherednichenko G.F. Teoriya i metodika literaturnogo obrazovaniya. – Sankt-Peterburg: Lan, 2020, B. 59–61.
4. Dewey J. *Democracy and Education*. – New York: Macmillan, 1916.
5. Vygotskiy L.S. *Myshleniye i rech.* – Moskva: Pedagogika, 1982.
6. Rosenblatt L. *Literature as Exploration*. – New York: Modern Language Association, 1998.
7. Freire P. *Pedagogy of the Oppressed*. – New York: Continuum, 2015.
8. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 152 b.
9. Safo Matchon. Kitob o‘qishni bilasizmi? – Toshkent: O‘qituvchi, 1993, 160 b.

